
Qozi Ahror mahallasidagi o'rganishlar

Tumanimizning 4-sektori hududidagi Qozi Ahror mahalla fuqarolar yig'inida olib borilayotgan ishlarni o'rganish va amaliy ishlar jarayonini ko'zdan kechirish maqsadida tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Muqaddasxon Bekmirzayeva ushbu mahallada bo'ldi.

Mahallada ayni kunda hudud tozaligini ta'minlash va obodonlashtirish yo'nalishida amaliy ishlar qilinmoqda. Mahalla hududidagi ekin yer maydonlarida ham ishlar qizg'in kechmoqda. Ekin yer maydonlarini tayyorlash, ekin ekish ishlari ham o'rganilib, tomorqachilikni rivojlantirish borasida xonadon sohiblari bilan suhbat qilindi.

Tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ham MFY xodimlari ishtirokida o'rganildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2024-03-29 13:08:32